

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**«Umumiqtisodiy nazariya va iqtisodiy pedagogika»
kafedrası**

«IQTISODIYOT NAZARIYASI»

fanidan

**«Talabalar mustaqil ishini tashkil etish,
nazorat qilish va baholash tartibi» bo‘yicha**

USLUBIY QO‘LLANMA

Tuzuvchilar:

I.f.d., prof. Jumaqulov T.

I.f.n., dots. Sharipov A.

**Kafedraning 2005 yil
" __ " _____dagi majlisi
qarori bilan tasdiqlangan
____ - sonli bayonnoma
kafedra mudiri _____
dots. Jo‘raev T.T.**

**TOSHKENT
“IQTISOD-MOLIYA”
2005**

1. Talabalar mustaqil ishining mazmuni va maqsadi

Iqtisodiyot har qanday jamiyatda insonning hayot kechirishga qaratilgan xo‘jalik faoliyati bo‘lib, bu faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanib, yaratilgan mahsulotlarni iste‘mol yetish bilan yaxshilanadi. Iqtisodiyot inson faoliyatining asosiy jihati, jamiyat hayotining poydevoridir. Inson tirik mavjudot sifatida birinchi navbatda, moddiy talab – ehtiyoji qondirilishi kerak. Unga faqat iqtisodiy faoliyat orqali erishiladi.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov boshchiligida ishlab chiqarilgan asosida bozor iqtisodiyotiga to‘la ishonch bilan o‘tib bormoqda. Bu yo‘lda erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda bugungi kunda o‘z yechimini topmagan muammolar, hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifalar ham o‘z o‘rniga ega.

Mavjud muhim iqtisodiy masalalarni tezroq hal qilish, ularning yechimini izlab topish, milliy istiqlol mafkurasi mazmunini va xususiyatlarini tushuntirish teran iqtisodiy tafakkurni shakllantirish ko‘p jihatdan kishilarning iqtisodiyot sirlarini bilishiga bog‘liq.

Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining mazmuni, ularning talablari va xususiyatlari, qonun - qoidalarini, amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi va mohiyatini chuqurroq bilishlari alohida ahamiyatga ega.

Bu muommolarni hal qilishning asosiy vazifasi bu talabalarga iqtisodiyot nazariyasi fani, uning qonun-qoidalarini tejamli xo‘jalik yuritish sirlari, turli kirishlar va xo‘jaliklarning bir-birlari bilan o‘zaro manfaatli iqtisodiy aloqa qilish yo‘llarini va shakllarini bilishga yordam berish hisoblanadi.

Demak, mazkur fanni egallash mamlakatda yashayotgan hamma kishilarning daromadlari, ularning turmush darajasi faqat milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga bog‘liqligini, shu yurtda mehnat qilayotgan kishilarning ijodiy mehnati bilan uning to‘g‘ri taqsimlashi va foydalanishi milliy pul barqarorligi ta‘minlanishiga bog‘liqligini teran mushohada qilishni anglatadi.

Ana shu va boshqa muhim iqtisodiy masalalarni tezroq hal qilish, ularning yechimini izlab topish ko‘p jihatdan kishilar iqtisodiyot sirlarini, ayniqsa bozor iqtisodiyoti munosabatlarining mazmuni, ularning talablari va xususiyatlarining, mazmuni, qonun-qoidalarini, amalga oshirilayotgan islohotlariga bog‘liqdir. Afsuski, talabalarimizning ko‘pchiligi uchun bozor iqtisodiyotining afzalliklari ham, nuxsonlari ham yaxshi tanish emas. Bu holat, albatta, iqtisodiy bilimlar yetishmasligidan dalolatdir. Mustaqil bilim olish imkoniyati cheklanganligi, eng avvalo, «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan qo‘llanmalar ayniqsa, «mustaqil ta‘lim» yo‘nalishi bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalarining yetishmasligidir.

Yuqoridagi zaruriy ehtiyojlardan kelib chiqib, har bir talaba iqtisodiy bilimi bo‘lishligini «davrlar talabi» deb tushuntirish lozim.

Bu esa, o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan «Ta‘lim to‘g‘risidagi» qonun va kadrlar tayyorlashning «Milliy dastur», shuningdek, harakatdagi Davlat ta‘lim standartlari talablaridan kelib chiqib, o‘qituvchi rahbarligidan bajariladigan ma‘ruza, seminar darslari va «Mustaqil ish» sifatini ko‘tarishni talab etadi. Shuningdek, ajratilgan soatlardan unumli foydalanish, talabalarni o‘z ustida ishlashga o‘rgatish va bu muhim talab – «davrlar talabi» ekanligini ongiga singdirishdan iboratdir.

«Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonun talablaridan kelib chiqib, davlat yangi ta‘lim standartlari joriy etilgandan buyon o‘quv rejasidagi «Mustaqil ish» uchun ajratilgan soatlar «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasida har xil usulda o‘tib kelinmoqda. Bu masala to‘g‘risida shuni ta‘kidlash zarurki, Toshkent Moliya instituti Rektorining 2 mart 2005 yil buyrug‘ida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2005 yil 21 fevralidagi 34-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Talaba mustaqil ishini tashkil yetish, nazorat qilish va baholash tartibi» to‘g‘risidagi namunaviy nizom asosida institutning «Talaba mustaqil ishini tashkil yetish, nazorat qilish va baholash tartibi» to‘g‘risidagi nizomi ishlab chiqildi. Bu nizomlarda ko‘tarilgan masalalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 343-son qaroriga muvofiq kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil yetish, nazorat qilish va baholash tartibini belgilaydi. Talabani mustaqil ishi o‘quv rejasida muayyan fanni o‘zlashtirish uchun belgilangan o‘quv ishlarining qismi bo‘lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatidan ta’minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Talabani mustaqil ishining asosiy maqsadi - o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Iqtisodiyot nazariyasi fani bo‘yicha talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

Iqtisodiyot nazariyasi faniga oid bo‘lgan ayrim va muhim bo‘lgan mavzular bo‘yicha Respublikamizning amaliyotida sodir bo‘layotgan iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni bilish maqsadida davlatimiz olib borayotgan iqtisodiy siyosatlariga bag‘ishlangan Respublikamiz nashriyotlarida bosilib chiqqan yirik iqtisodchilarning asarlarini mustaqil o‘qish va o‘rganish hamda taraqqiy etgan davlatlarda nashrdan chiqqan adabiyotlar bilan tanishish, yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish, ko‘nikmalariga ega bo‘lish, kerakli ma’lumotlarni izlab topish, qulay usullarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish va hokazolar. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha «Mustaqil ish» darslarini va unga ajratilgan soatlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan uslubiy qo‘llanmalarni yaratish va mavjudlarini yanada takomillashtirish zarur. Ularda mazkur darslarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishda talabani manfaati, uni rag‘batlantirish yo‘llari o‘z yechimini topgan bo‘lishi va buni talaba shaxsan juda yaxshi xis qilmog‘i lozim.

Buning uchun o‘z navbatida professor - o‘qituvchilar o‘ta tajribali, bilimlil, talabalar qalbiga yo‘l topa olishdek mahoratli bo‘lishi talab etadi.

Bu yangicha talab kafedra a‘zolari, professor - o‘qituvchilarning o‘z faniga bo‘lgan ma’suliyatini yanada oshiradi.

Toshkent Moliya institutida talabalarga o‘qitiladigan «Iqtisodiyot nazariyasi» fani bo‘yicha tuzilgan ishchi o‘quv dasturida 96 soat – dars mustaqil ishga ajratilgan. Albatta, bu institutda mutahassislar tayyorlash o‘quv (dasturi) rejasiga mos keladi. Masalaning murakkabligi shundan iboratki, institutda talabalarni o‘qitishning asosiy shakllari to‘g‘risida (jumladan, ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari kabi darslarning qanday o‘tkazilishi to‘g‘risida) ma’lum tajriba va uslubiy qo‘llanmalar mavjud. Shu jumladan, iqtisodiyot nazariyasi fanidan o‘tkaziladigan dars shakllari bo‘yicha ham uslubiy qo‘llanmalar mavjud. Lekin, hozirgacha talabalarning iqtisodiyot nazariyasi fani bo‘yicha bajarilishi lozim bo‘lgan mustaqil ishlari va ularni qanday qilib bajarish kerak ekanligini o‘rgatadigan uslubiy qo‘llanma mavjud emas, avvalo shunday savol tug‘iladi, talabalarning mustaqil ishi deganda nimani tushunish kerak? Talabalarning mustaqil ishi qanday ko‘rinishlarda bo‘ladi va qanday shakllarda amalga oshiriladi? o‘qish vaqti auditoriyada va auditoriyadan tashqaridagi vaqtdan tashkil topadi. Auditoriyadagi vaqtda talaba o‘qituvchining ma’ruzasini eshitadi, seminar darsida muloqatda bo‘ladi, amaliy darsda masalalar yechadi. Xullas, auditoriyadan tashqaridagi vaqtda talaba darsga tayyorlanadi. Bizning fikrimizcha talabani auditoriyadan tashqaridagi vaqti va vaqt ichida bajargan ishi mustaqil ish deb, tushunilishi kerak. Ammo, bizning amaliyotimizda talabalarning

auditoriyadan tashqarida bajaradigan ishlari: seminar darslariga tayyorlanib konspekt yozishi, referat, kurs ishi, ilmiy ma'ruza tayyorlashi kabi ishlar mustaqil ish sifatida tayyorlansa ham, lekin ular mustaqil ish tarkibiga kiritilmaydi. Masalani bunday qo'yishimizning sababi shundan iboratki, talabaning o'qish vaqti chegaralangan bo'lib, u bir haftada har kuni 6 soat auditoriyada bo'lib 3 soat o'yda darslarga tayyorlanishga sarflansa, talabaning haftalik o'qish vaqti 54 soatni tashkil etadi.

Agar biz talabaning haftalik bu vaqtiga yuqorida ko'rsatilgan 96 soatlik mustaqil ishni qo'shadigan bo'lsak, unda talabaning haftalik o'qish vaqti anchaga ko'payadi. Masalaning muammo tomoniga ko'p e'tiborni qaratmasdan, uning amaliy hal qilishi nuqtai nazaridan yondashib o'quv rejasida ko'rsatilgan 96 soatli talabalarining mustaqil ishining tashkil yetishiga fikr bildirish ahamiyatga ega.

Shunday qilib, institutda mutahassislar tayyorlash o'quv rejasida iqtisodiyot nazariyasi fani bo'yicha 96 soat mustaqil ish darsi ko'rsatilgan bo'lib, unga seminar darslariga tayyorlanish, kurs ishini yozib uni himoya qilish ishlari kirmaydi. Ushbu qo'llanmada bundan keyingi so'z ana shu 96 soatli talabalarining mustaqil ishi to'g'risida ketadi.

Talabalarining mustaqil ishini tashkil etganda quydagi masalalarga e'tibor berish kerak:

Birinchidan, mustaqil ishning mavzularini aniqlanganda, iqtisodiyot nazariyasi fanining har bir mavzusi bo'yicha, eng muhim bo'lgan masala yuzasidan muammoni aniqlab, u muammoni hal qilishga qaratilgan adabiyotni yoki asarni olib, uni konspekt, qilish va uning asosiy mazmunini so'zlab berish, yoki konspekt qilish bilan chegaralanib qolishi, yoxud uni mustaqil o'qib, uning mazmunini gapirib berish shakllarida tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, mustaqil ishni tashkil qilganda albatta, talabalarining bu ishga sarflanadigan vaqtni hisobga olish zarur. Mustaqil ishning xajmi shunday aniqlanishi kerakki, talaba bu ishni real bajara oladigan bo'lishi kerak.

Agar talaba biron bir adabiyotni yoki asarni konspekt qilishi kerak bo'lsa, unda bir bet asarni o'qib uni konspekt qilishi uchun 20-25 minut ajratish kerakdir. Agar qandaydir mavzu bo'yicha mustaqil ishga 3 soat ajratiladigan bo'lsa va bu ish konspekt qilish uchun beriladigan asarning xajmi 9 betdan oshmasligi kerak.

Agar asarni o'qib, rahbariga og'izaki javob beradigan bo'lsa unda talabaga mustaqil ish sifatida 25 betli asarni tavsiya yetish mumkin. Bir betli asarni o'qib uning mazmunini aytib berish uchun 5-7 minut vaht etarli.

Uchinchidan, talabalarga mustaqil ishni vazifa sifatida topshirganda o'qituvchi har bir mavzu bo'yicha «qanday maqsad qo'yiladi?» degan savol qo'yib bu savolga javob berishi kerak. Aniqrog'i har bir mavzuning oldiga qo'yilgan maqsadni aniq belgilashi zarur.

To'rtinchidan, talabalarining mustaqil ishi ma'lum bir tamoyillar asosida tashkil etilishi kerak.

Mustaqil ish har bir talaba tomonidan mustaqil bajarilib, uning sifati o'qituvchi tomonidan tekshirilib, baholar qo'yilishi kerak.

Beshinchidan, talabalarining mustaqil ishi rejasi kafedra majlisida tasdiqlanib rejadagi talabalarining mustaqil ishi haftalarga bo'linib uning bajarilishi kafedra mudiri tomonidan nazorat qilinishini uning natijalari kafedra majlisida muhokama qilib borilishi kerak.

Oltinchidan, mustaqil ishning talabalar bilimini oshirishda muhim o‘rin egallashini hisobga olgan holda, mustaqil ishi natijasi bo‘yicha olingan reyting ballari talabalarning umumiy Reyting balliga qo‘shilishi kerak.

Ettinchidan, talabalarning mustaqil ishi sifatida shunday ishlar tanlanishi kerakki, ularni bajarganda talaba u yoki bu ishni mavzusini chuqur o‘rganishga imkoniyat yaratish zarur. Talabalarga mustaqil ish sifatida Prezidentimizning iqtisodiyot nazariyasiga oid bo‘lgan asarlari, iqtisodiyotni tartibga solib turadigan qonunlar, iqtisodiyot nazariyasi faniga oid bo‘lgan, o‘quv qo‘llanmalarining ayrim mavzularni chuqur o‘rganish kabi masalalarni tavsiya qilish mumkin.

2. Talabalar mustaqil ishning shakllari va mavzulari

Yuqorida aytilgandek, talabalar mustaqil ishi ishchi dasturida ko'rsatilganidek yozma yoki og'zaki javoblari shakllarida amalga oshiriladi.

«Talabalar mustaqil ishi» jumlasini ko'rsatib turibdiki bu ishni talabalar ayrim mavzulari bo'yicha u yoki bu masalalarni mustaqil o'rganib, bajaradi. U o'qituvchi tomonidan baholanadi va bu ish oldindan rejalashtirilgan grafik asosida amalga oshiriladi. Talabalarning mustaqil ish shakli yozma konspekt shaklida yoki belgilangan masalaga adabiyotlarni mustaqil o'qib tayyorlanish shakllarida tashkil etiladi. Quyida talabalarning mustaqil ishining shakllari va ular qaysi mavzular bo'yicha bajarilishi keltiriladi.

Talabalar mustaqil o'rganiladigan adabiyotlarning nomi, bajaradigan ishlarning shakllari

Mavzu	Iqtisodiyot nazariyasi faning mavzusining nomi	Talabalar bajaradigan mustaqil ishning shakli	Talabalar mustaqil o'rganiladigan adabiyotlarning nomi, mualliflari, betlari	Ajratilgan vaqt
1-mavzu	Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va metodi	Konspekt qilish va mazmunini gapirib berish	Makkonnell K. Bryu S. «Ekonomiks» I tom. 12-24 betlar	4 soat
2-mavzu	Iqtisodiy faoliyati va ishlab chiqarish	Konspekt qilish va mazmunini gapirib berish	I. Karimov «O'zbekiston – iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarning 16-26 betlari.	6 soat
4-mavzu	Tovar – pul munosabatlari, bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishning asosidir	Mazmunini gapirib berish	Sh.Shodmonov. T.Jo'raev. R.Alimov «Iqtisodiyot nazariyasi» Toshkent. «Moliya» 2002	
5-mavzu	Mulkchilik munosabatlari	Konspekt qilish va mazmunini gapirib berish	I.Karimov «O'zbekiston- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarning 43-58 betlari	7 soat
7,8,9,- mavzular bo'yicha		O'qib mazmunini gapirib berish	I.Karimov. «Bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asarning 3-48 betlari	6 soat
10-mavzu	Talab va taklif. Bozor muvozanati	O'qib mazmunini gapirib berish	Makkonnell K.. Bryu S. «Ekonomiks» I tom, 18-26 betlar	2 soat
14-mavzu		Konspekt qilish va mazmunini gapirish	I.Karimov «O'zbekiston- iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida» asarining 179-194 bet	8 soat

15-mavzu	Narx nazariyasi	Konspekt qilish mazmunini gapirib berish	I.Karimov «O‘zbekiston- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘li-da» asarining 88-102 betlari.	7 soat
16-mavzu	Agrar munosabatlari. Agrobiznes	Konspekt qilish va mazmunini gapirib berish	I.Karimov «O‘zbekiston- iqtisodiy islohotla- rini chuqurlashtirish yo‘lida» asarining 58-75 betlari	7 soat
17-mavzu	Milliy iqtisodiyot va uning makro-iqtisodiy o‘lchamlari	Mazmunini gapirib berish.	I.Karimov «O‘zbekiston- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida» asarining 194-216 betlarini	3.0 soat
18-mavzu	Yalpi talab va yalpi taklif	Mazmunini gapirib berish	Makkonnell K. Bryu S. «Ekonomiks» I tom. 175-190 betlari	5 soat
20-mavzu	Iqtisodiy o‘‘sish va milliy boylikning ko‘payishi	Konspekt qilish va mazmunini gapirib berish	I.Karimov «O‘zbekiston- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida» asarining 228-245 betlari	8 soat
23-mavzu	Yalpi ishchi kuchi uning bandligi va ishsizlik	Mazmunini gapirib berish	Kadrlar tayyorlash milliy dastur 34-61 betlar	4 soat
27-mavzu	Bozor iqtisodiyotini tartibga solish	Konspekt qilish va mazmunini gapirib berish	Makkonnell K. Bryu S. «Ekonomiks» 95-101 betlar	9 soat
28-mavzu	Aholi daromadlarini va davlatning ijtimoiy siyosati	Konspekt qilish va mazmunini gapirib berish	I.Karimov «O‘zbekiston- iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo‘lida» asarining 119-139 betlari	11 soat
29-mavzu	Jahon xo‘jaligi va uning evolyutsiyasi	Konspekt qilish va mazmunini gapirib berish	I.Karimov «O‘zbekiston-XXI asr bo‘‘sag‘asida (xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari) asarining 299-323 betlari	10 soat
	Jami			96 soat

3. Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish va baholash

Ushbu uslubiy qo'llanma iqtisodiyot nazariyasi fani bo'yicha ishlab chiqilgan ishchi dasturi tarkibiga kiritilib uning mazmuni ma'ruza o'tuvchi professor-o'qituvchi tomonidan birinchi darajada talabalarga tushuntiriladi. (mustaqil ishning ahamiyati, uning bajarilish tartibi, baholash mezonlari va h. k)

Ma'ruza va seminar darsini olib boruvchi o'qituvchi talabalarga har darsda qo'llanmada ko'rsatilgan mavzu bo'yicha mustaqil ishning bajarish muddatini belgilab berish kerak. Shu bilan bir qatorda seminar darsi olib boruvchi o'qituvchi talabalarning mustaqil ishni bajarishi uchun kerak bo'lgan adabiyotlar bilan ta'minlanganligini nazorat qilib borishi lozim. Agarda talabalar kerakligi bo'lgan adabiyotlar bilan ta'minlanmagan bo'lsa, unda adabiyotlar bilan ta'minlash chora tadbirini ko'rishi kerak. Talabalar tomonidan mustaqil ishning qanday darajada bajarayotganligiga seminar darsi olib boradigan o'qituvchi masul hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchining qo'lida (guruh seminar jurnalida) har bir talabaning mustaqil ishni qanday bajarayotganligi haqida talaba mustaqil ishni o'z vaqtida topshirmagan (bajarmagan) bo'lsa navbatdagi mustaqil ishni bajarishiga ruxsat bermaydi. Xullas, har bir talaba o'quv-ishchi rejada ko'rsatilgan mustaqil ishni bajarishi majburiy. Talabalarning bajargan mustaqil ishi reyting ballari asosida baholanib ularning iqtisodiyot nazariyasi fani bo'yicha to'planadigan joriy reyting ballariga qo'shilishi shart. Yuqorida ko'rsatilgandek, iqtisodiyot nazariyasi fani bo'yicha 16 mavzu bo'yicha mustaqil ishi bajariladi. Har-xil mavzu bo'yicha bajariladigan mustaqil ish uchun eng yuqori ball (2 ball) belgilanadi. Agar talaba mustaqil ishi 1,1-1,4 ballgacha baholansa «3», 1,4-1,7 gacha ball to'plasa «4», 1,7 dan 2 gacha to'plangan reyting balliga «5» baho qo'yishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiyot nazariyasi fani bo'yicha talabalar mustaqil ishini bajarganligi uchun eng kam 17,6 ball va eng yuqori 32 ball to'plashi mumkin. Shu jumladan, I semestrda eng kam va eng yuqori ball mos ravishda 8,8 va 16,0 ni tashkil qiladi.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish, baholash o'qituvchining o'quv yuklamasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. O'qituvchining bu o'quv yuklamasi uning ish kunini birinchi qismiga kiritilishi kerak. Bu yuklamani hisoblash ancha murakkab. Shu sababali uni hisoblash uchun quyidagi usul tavsiya etiladi.

Yuklamani aniqlash uchun mezon sifatida har bir mavzu bo'yicha talabalarga ajratilgan mustaqil ishga ajratilgan vaqt olinishi kerak. Masalan, 2 chi mavzu bo'yicha (- «Iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish») konspekt uchun 6 soat vaqt ajratilgan, mana shu 6 soat vaqt o'qituvchi uchun 6 soat o'quv yuklamasi deb hisoblanishi kerak. Shunday qilib o'qituvchilar uchun talabalarning mustaqil ishini tekshirish uchun ham 96 soat o'quv yuklamasi belgilanishi kerak.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari kafedra tomonidan belgilanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili (semestri) boshlanishi oldidan metodik materiallar bilan birgalikda tarqatiladi. Mustaqil ish bo'yicha belgilangan maksimal reyting ballining 55 foizidan kam ball to'plagan talaba fan bo'yicha yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.